

Loyiha nomi: “Oliy pedagogik ta’limni standartlashtirishning nazariy va amaliy asoslari”.

Loyiha rahbari: S. Ashirboyev

1.1. Amaliy Tadqiqotlar.

1.2. ITD-4. Yosh avlodni tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida munosib tarbiyalash, ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, uzluksiz ta’lim tizimida yuqori malakali, shuningdek, boshqaruv kadrlarini tayyorlashni takomillashtirish.

1.3. Ijtimoiy-gumanitar.

1.4. O‘zbekistan Respublikasida amalda bo‘lgan Davlat ta’lim standartlari Rossiya Federatsiyasining 1994-yildagi namunasi asosida amalga oshirilmoqda. Unga ko‘ra bakalavriyat ta’lim yo‘nalishlari, magistratura mutaxassisliklari davlat ta’lim standartlari besh qismdan iborat qilib tuzilgan hamda magistratura bo‘yicha yo‘nalishlar bo‘yicha 2 ta, ya’ni yo‘nalishga oid mutaxassisliklarining umumiy talablaridan iborat alohida standart va mutaxassisliklar bo‘yicha alohida standart tayyorlab kelinmoqda. Ushbu loyiha mualliflari 1992-yildan buyon ta’lim jarayoni me’yoriy hujjatlarini tayyorlash va uni amalga joriy etish bo‘yicha tajribalari, xalqaro miqyosda oliy ta’limning rivojlanish tendensiyalari va pedagogik kadrlarni tayyorlashda «qotib qolgan» qoliplar emas, balki davrga moslanuvchan, ta’lim va tarbiya sohasidagi ilg‘or g‘oyalarni hamda salbiy (negativ) xarakterdagi g‘oyalarni farqlay oladigan, mustaqil va tezkor qarorlar qabul qiladigan pedagog kadrlar tayyorlashni ko‘zda tutgan Davlat ta’lim standartlarini yaratish zarurligi jihatdan masalaga yondoshmoqdalar. Loyihada Davlat ta’lim standartlarining yangi avlodini ishlab chiqish tamoyillari, uning maketi, muayyan bakalavriyat yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi Davlat ta’lim standartlari hamda ularni yaratish va qo‘llash bo‘yicha nazariy va amaliy qo‘llanmalar yaratiladi. Tayyorlanishi kutilayotgan loyihada *“Yevropa oliy ta’lim kengligi”* talablariga mos keladigan ta’lim dasturini yaratish vazifa qilib qo‘yilgan, ya’ni unda fanlar uch blokka birlashtiriladi: xalqaro fanlar bloki,

fanlarning Respublika bloki, oliy ta'lim muassasasi bloki.

Har bir blok o'z ichida fanlarning xususiyati hisobga olingan modullarga bo'linadi.

Hozirgi joriyda bo'lgan davlat ta'lim standartlarida bitiruvchining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar *tasavvur, malaka, ko'nikma* parametrlarida belgilangan, lekin amalda tasavvurlarni boshqa parametrlardan farqlash o'zining to'g'ri isbotini topmadi, aslida, bitiruvchining malaka va ko'nikma darajasininggina belgilab berilishi maqsadga muvofiq.

Loyiha uch bosqichda amalda oshiriladi.

1- bosqichda (2009-yil davomida) rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'limni, shu jumladan, oliy pedagogik ta'limni standartlashtirish tajribalari o'rganiladi va O'zbekistonda oliy pedagogik ta'limni takomillashtirish tamoyillari ishlab chiqiladi va muhokamaga qo'yiladi.

Oliy pedagogik ta'limni standartlashtirishning nazariy asoslari bo'yicha risola tayyorlanadi.

2- bosqichda (2010-yilda) jahon tajribalari, O'zbekistonda ishlab chiqilgan standartlar tahlili asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishi, magistratura mutaxassisliklar bo'yicha umumiy talablar, konkret bir ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligining mukammal namunalari yaratiladi va pedagogik kadr tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida taqdimotdan o'tkaziladi.

3- bosqichda (2011-yilda) «Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori»da «Ta'lim» bilim sohasiga kirgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ijodiy guruhlar tuziladi va 33 ta bakalavriat yo'nalishi va 57 dan ortiq magistratura mutaxassisliklari Davlat ta'lim standartlari va ularni ta'lim jarayoniga qo'llash bo'yicha (4 b.t) metodik qo'lanma yaratiladi. Ular ijodiy guruhlarda muhokamadan o'tadi, pedagog kadr tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida ekspertiza qilinadi hamda vazirlik ruxsati bilan ikkita (Nizomiy nomidagi TDPUDA va pedagogika institutlaridan birida sinovdan o'tadi va shu tariqa 2013-yilda ularni O'zbekiston Respublikasi oliy

ta'lim muassasalarida yalpi joriy etishga tavsiya etiladi.

4 - shakl. Amaliy-texnik tadqiqotlar uchun ish dasturi

4.1. Oliy pedagogik ta'limni standartlashtirishning nazariy va amaliy asoslari.

4.2. Muammo doirasida quyidagi amaliy masala hal etiladi.

Oliy ta'limni standartlashtirish bo'yicha hozirga qadar amalda bo'lgan Davlat ta'lim standartlari oliy ta'limning barcha bilim va ta'lim sohalari uchun ayni bir xil yondashuvga asoslangan tamoyillarda yaratilgan. Ushbu loyihada «Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori»ning «Ta'lim» bilim sohasi va «O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani» ta'lim sohasiga kirgan bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari davlat ta'lim standartlarida pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari jihatidan yondashiladi va pedagog kadrning keng qamrovli bilimga ega bo'lishi bilan birga, uning g'oyaviy, ma'naviy yetukligi, pedagogning jamiyat talablariga javob bera oladigan, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'z amaliy faoliyatida tatbiq eta oladigan, o'qituvchi shaxsining globallashuv jarayoni talablariga javob bera oladigan, jahonning ilg'or tajribalarini analiz va sintez qiladigan, rivojlanuvchi ta'limni joriy eta oladigan xislatli qilib tayyorlash ko'zda tutiladi. Aslini olganda, texnika, qurilish, moliya kabi sohalar standartlari bilan pedagog kadr tayyorlanadigan yo'nalishlar va mutaxassisliklar standartlariga bir xilda yondashib bo'lmaydi.

Loyihada quyidagi masalalar kiritiladi yoki yangicha talqinda beriladi:

1. Davlat ta'lim standartlari mutlaqo yangi tuzilmada beriladi. Unda standartning qo'llanish sohasi, doim amal qilinadigan tushunchalar izohi, yo'nalish va mutaxassislikniig umumiy tavsifi, ta'lim dasturini amalga oshirish shart-sharoitlariga qo'yiladigan umumiy talablar (oliy ta'lim muassasasi huquq va majburiyatlariga qo'yiladigan talablar, talabalarning huquq va majburiyatlariga qo'yiladigan talablar), asosiy ta'lim dasturiga qo'yiladigan talablar, bakalavrlar (magistrlar) tayyorlash asosiy ta'lim dasturiga qo'yiladigan talablar (unda o'quv jarayonini kadrlar bilan ta'minlash, o'quv jarayonining

o'quv-metodik va axborot ta'minoti, o'quv jarayonning moddiy-texnik ta'minotiga e'tibor qaratiladi) ishlab chiqiladi.

2. Davlat ta'lim standartida talabalar bilimiga qo'yiladigan talablar an'anadagidek, *tasavvur, malaka, ko'nikma* darajasida emas, balki taraqqiy etgan mamlakatlardagidek, *bilim, malaka, ko'nikma* darajalari bilan belgilanadi.

3. Loyihada talabalar bilimiga qo'yiladigan talablar, ularga tavsiya etiladigan zaruriy (majburiy) bilimlar hajmi aniqlangandan so'ng beriladi. Bu muayyan mantiqiy izchillikni hosil qiladi, ya'ni avval zaruriy bilimlar hajmi, so'ng bitiruvchining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar beriladi.

4. Davlat ta'lim standartlarida talabalarning tayyorgarlik darajasi yoki muayyan yo'nalish bo'yicha kompetentligi (bilimdonligi) muhim o'rin tutadi. Bu masala avvalgi Davlat ta'lim standartlarida hisobga olingan emas, faqat pedagogik yo'nalishdagi Davlat ta'lim standartlariga ushbu loyiha mualliflari tomonidan kiritilgan edi. Loyihaga umumiy-ilmiy, ish qurollarida (texnikada) ishlay olish, ijtimoiy, ma'naviy, kasbiy kompetentlik belgilab beriladi.

5. Loyihada standartning ta'lim dasturi 3 blokli va ichki modulli tizimi ishlab chiqiladi. Unda:

- *xalqaro blok*

- *fanlarning respublika bloki*

- *oliy ta'lim muassasasi bloki* aks etadi va har bir blok o'z ichida fanlarning mazmuniy aloqadorligiga qarab modullarga bo'linadi. Bu esa O'zbekistan Respublikasidagi oliy ta'limni jahon oliy ta'limiga integratsiyasini ta'minlash uchun zamin yaratadi.

6. Oliy pedagogik ta'limda pedagog kadrni shakllantirishda *pedagogika, psixologiya, o'qitish metodikasi* fanlarining o'rni juda katta. Bu fanlar mazmuni amaldagi Davlat ta'lim standartlarida 60-70-yillar darajasida aks etgan. Vaholanki, globallasuv jarayonlarida ta'limda ijobiy rivojlanishga erishilayotgan bo'lsa, tarbiyada muayyan inqirozlar mavjud. Bu esa fanlar mazmunining amaliyligiga alohida talablar qo'yishni kun tartibiga keltirmoqda. Buning ma'nosi shundaki, XXI asr bitiruvchisi tarbiya sohasidagi milliy va

umuminsoniy munosabatlarni, milliy tarbiyani amalga oshirish yo'llari bilan reproduktiv, ijodiy va izlanish darajasida qurollangan bo'lishi lozim. Buning uchun standartda pedagogika, psixologiya, o'qitish metodikalari fanlari mazmuniga hamda talabaga istiqbolda ham pedagogik faoliyat yuritishda kompetentlik darajasini ta'minlashiga qaratilgan talablar qo'yiladi.

7. Standartda pedagogik amaliyotning bosqichlari bo'yicha talablar ishlab chiqiladi. Joriydagi standartlarda pedagogik amaliyot (u yerda malakaviy amaliyot)ga 13-22 (bunda biz o'quv amaliyotini chegirib tashlamoqdamiz) hafta ajratilgan. Uning mazmuni berilgan, lekin pedagogik amaliyotga talablar ishlab chiqilmagan. Loyihada pedagogik amaliyotning ilmiy-metodik jihatdan asoslangan mazmuni va talablari beriladi. Bunda talabaning pedagog kadr sifatida shakllanishi, bosqichlari, passiv va aktiv amaliyot turlarida belgilab beriladi: 1-kursda psixologiya, 2-kursda pedagogika, 3-kursda "O'qitish metodikasi", "Yosh va pedagogik psixologiya", "Pedagogik texnologiya", "Pedagogik mahorat" va oliy ta'lim muassasasi komponentidagi boshqa fanlarning amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bilan bog'lanishlarini ta'minlovchi tizim beriladi va 4-kursdagi aktiv pedagogik amaliyot uchun nazariy va amaliy tayyorgarlik bosqichini o'tashi rasmiylashtiriladi.

8. Ushbu loyiha mualliflarining tashabbusi bilan 2008-yilda tasdiqlangan Davlat ta'lim standartlarida bitiruvchining stajyorlik faoliyati mazmuni ham kiritilgan edi. Loyihada bu g'oya yanada rivojlantiriladi va uning mazmuni. stajyorlik faoliyatiga qo'yiladigan talablar. stajyorlik to'g'risida Nizom, stajyorlik faoliyati dasturi unga ilova qilinadi.

Bitiruvchining stajyorlik faoliyatini me'yorlashtirish va uni tashkil etish boshqa bir ijtimoiy topshiriqning bajarilishiga ham ko'mak beradi, ya'ni bitiruvchilarning ishga joylashishi va shu bo'yicha amalga oshirilayotgan nazoratni ham yengillashtiradi.

4.3. Loyiha uch bosqichda amalga oshiriladi:

№	Loyiha bosqichlarining nomi	Bajarish muddati	Kutilgan natija
1.	Oliy ta'limni standartlashtirish tajribalari tahlili (xalqaro va o'z tajribalarimiz).	1.01-1.12.2009	«O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani» ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun namuna standart tayyorlash tamoyillari, nazariy asoslari yaratiladi, 4 b.t risola tayyorlanadi.
2.	«O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani» ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligi uchun namuna bo'ladigan standart loyihalari	1.01-31.12.2010	Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bir namuna standart, «O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani» ta'lim sohasi uchun umumiy talablar va xalqaro blok fanlarining zaruriy mazmuni ishlab chiqiladi va uni yaratish bo'yicha metodik tavsiyanoma tayyorlanadi (1
3.	«O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani» ta'lim sohasiga kirgan fanlarning tubdan qayta ishlangan Davlat ta'lim standartlari	1.01-31.12.2011	Davlat ta'lim standartlarining yangi avlodi, namunaviy o'quv rejalari (33 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi, 57ta magistratura mutaxassisligi) yaratiladi va 4 b.t hajmida ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha

4.4. Loyiha mavzusi bo'yicha e'lon qilingan maqolalar va amalda bo'lgan standart ro'yxati ilova qilinadi:

Loyiha natijalarni bo'yicha tajriba-sinov ishlari Nizomiy nomidagi TDPU, Qo'qon DPI, Nukus DPIlarida 2010-2011-o'quv yili davomida o'tkaziladi.

4.5. ITD-4. Yosh avlodni tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida munosib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimida yuqori malakali, shuningdek, boshqaruv kadrlarini tayyorlashni takomillashtirish.

